

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ABDURAHMANOV MURODJON SAYITQULOVICH

**9-10 YOSHLI KARATECHILARDA BO‘G‘IMLAR EGILUVCHANLIGINI
TARBIYALASH METODIKASI VA UNI ELEKTRON O‘LCHOV USKUNASI
YORDAMIDA BAHOLASH**

**13.00.04–Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abdurahmanov Murodjon Sayitqulovich

9-10 yoshli karatechilarda bo‘g‘imlar egiluvchanligini tarbiyalash metodikasi va uni elektron o‘lchov uskunasi yordamida baholash..... 3

Абдурахманов Муроджон Сайиткулович

Методика воспитания гибкости суставов у 9-10 летних каратистов и преимущества её оценивания с помощью электронного измерительного оборудования..... 31

Abdurakhmanov Murodjon Sayitkulovich

Advantage of the methodology for training joint elasticity in 9-10-year-old karate fighters and its assessment using electronic measuring equipment..... 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 65

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ABDURAHMANOV MURODJON SAYITQULOVICH

9-10 YOSHLI KARATECHILARDA BO‘G‘IMLAR EGILUVCHANLIGINI
TARBIYALASH METODIKASI VA UNI ELEKTRON O‘LCHOV USKUNASI
YORDAMIDA BAHOLASH

13.00.04–Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5235 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzdjtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qaypov Nietbay Aytbaevich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kochkarov Atabek Axmatvayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Po‘latov Laziz Azamat o‘g‘li
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil “_____” _____kuni soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 uy. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; faks: (0-370) 717-17-76; veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “A” binosi, 1-qavat, 114-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 uy.) Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; faks.: (0-370) 717-17-76

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ”_____” _____kuni tarqatilgan.

(2025-yil “_____” _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

X.X.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda sharqona yakkakurash sport turlaridan biri karate o'zining falsafiy mohiyati, noyob va mo'jizakor harakatlari bilan uzoq o'tmishdan boshlab jang san'ati sifatida tanilgan. Bugungi kunga kelib kechadigan sport maqomi tarzida bellashuv jarayoni qo'l-oyoq zarbalari bilan yanada ommalashib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, har tomonlama sayqal topgan karatechilarni tayyorlash ularni mashg'ulot jarayonlarini tizimli rejalashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, yakkakurash sport turlarida, karateda raqibga zarba berish "zonasi" musobaqa qoidalari bilan belgilangan bo'lib, ana shu "zona" doirasini qo'l-oyoq bilan to'liq va aniq ishg'ol qilish bo'g'imlararo egiluvchanlik ularning bukish-yozish amplitudasiga bog'liligini aks ettirmoqda. Biroq, bo'g'imlar egiluvchanligi sust rivojlangan bo'lsa, mushaklar elastikligi yetarli bo'lmasligi va bunday holat zarba berish koordinatsiyasi, uning amplitudasi hamda aniqligiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Karate amaliyotida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'imlararo egiluvchanlikni tarbiyalash va uni obyektiv baholash masalalari tor doirada o'rganilgan bo'lib, yosh karatechilarni tayyorgarlik turlarini kompleks nazorat qilish bilan birga ularni egiluvchanligini elektron uskunalar yordamida aniqlash hamda ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda bugungi kunga kelib turli yosh va sport malakasiga mansub karatechilar tayyorlash amaliyotining nazariy, metodik hamda ilmiy asoslari ishlab chiqilgan, ilg'or xalqaro tajribalar to'plangan. Aksariyat sport turlarida texnik-taktik usullarga o'rgatish, ularni takomillashtirish, jismoniy sifatlar va psixofunksional imkoniyatlarni rivojlantirish metodlari, vositalari, baholash mezonlari yaratilgan. Ko'p yillik tayyorgarlik sikllarida mashg'ulotlarni o'tkazish, yuklamalar hajmi va shiddatini optimallashtirish tadqiqotlar asosida ochib berilgan. Ammo, sharqona yakkakurash sport turlaridan biri bo'lgan karate amaliyotida bunday muammolar to'la-to'kis o'z yechimini topmagan. Ushbu sport turida zarbalar amplitudasi, koordinatsiyasi va aniqligi, bo'g'imlararo egiluvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yosh karatechilarda bo'g'imlar egiluvchanligini tarbiyalashda ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda, yosh avlodning jismoniy rivojlanishini jadallashtirish, bolalar sportini keng ommalashtirish, ularni ixtisoslashgan sport yo'nalishlariga yo'naltirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yosh karatechilarning sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun tayyorgarlikning barcha jihatlari, ayniqsa, harakat amplitudasini belgilovchi bo'g'imlar egiluvchanligini rivojlantirish"¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Bo'g'imlarning egiluvchanligi nafaqat texnik harakatlar aniqligi xavfsizligini ta'minlovchi omil, balki yuqori darajadagi sport natijalarining zarur shartlardan biri hisoblanmoqda. Ayniqsa 9–10 yoshli karatechilar uchun bu yosh davrida mushak va skelet tizimining faol shakllanishi, bo'g'imlar elastikligi va harakat apparatining o'zgaruvchanligi ularning tayyorgarlik jarayoniga mos yondashuvni talab qilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi PQ-356-son "Karate (WKF) sport turini ya'nada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 3-noyabrdagi PQ-356-son “Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, gi 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda M.A.Karimov, R.D.Xalmuxamedov, I.Yu.Shamsematov, R.S.Salomov, S.S.Tajibayev, Sh.Arslanov, Sh.S.Mirzanov, T.S.Usmanxodjayev, A.A.Pulatoev, F.A.Pulatoev² yakkakurash sport turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirish, mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish hamda bellashuvlarda oyoq bilan zarba berish ustunligida kechadigan yakkakurash sport turlariga xos texnik-taktik harakatlar amplitudasini kengaytiruvchi, ularning texnikasi, tezkor-kuch parametrlari, jismoniy qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan Yu.B.Kalashnikov, O.B. Malkov, T.B.Basik, Ki Chjon Li, R.R.Shayxiyev, P.Eldjen, M.A.Batuyeva, N.N.Bumarskovalar³ tomonidan sportchilar tayyorlash nazariyasi va metodikasi doirasida chop etilgan ilmiy, o‘quv va metodik manbalarida barcha sport turlari

² Каримов М.А., Халмухамедов Р.Д., Шамсематов И.Ю., Тажибаев С.С. “Боксчиларнинг спорт-педагогик маҳоратини ошириш”. Ўқув-услубий қўлланма. “ЎЗБЕКИСТОН” нашриёт матбаа ижодий уйида chop etilgan. Тошкент. – 2011 й. – 480 б.; Саломов Р.С. Спорт машғулотининг назарий асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент. – 2005. – 240 б.; Тажибаев С.С. “Ёш боксчиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси” педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Диссертация. Тошкент. – 2017. – 211 б.; Арсланов Ш., Мирзанов Ш. Совершенствование качеств гибкости юных каратистов средствами «хатха-йоги», №1, 2018. - С. 9-13.; Усманходжаев Т.С., Тажибаев С.С., Пулатов А.А., Пулатов Ф.А. Спорт ва ҳаракатли ўйинлар (миллий ва ҳаракатли ўйинлар) дарслик: Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. — Т.: Чолпон номидаги НМ ИУ. – 2018. — 328 б.

³ Калашников Ю.Б. Построение комбинаций боевых действий в таэквондо / Ю.Б. Калашников, О.Б. Малков, Т.Б. Басик // Тактика ведения спарринга в таэквондо – ИТФ.-М.: РГАФК, 2000. - С. 56-61.; Ли Ч.К. Техничко-тактические характеристики соревновательного спарринга в таэквондо версии ВТФ: автореф. дисс.... канд, пед. наук. 13.00.04./ Ки Чжон Ли, - М.: РГУФК, 2003. – 23 с.; Шайхиев Р.Р. Особенности насосной функции сердца лиц, занимающихся каратэ // автореф. дис ... канд. педагог. наук. – СПб., Казань-2006. - С. 3-14.; Элджен П. Поясница. Здоровье и гибкость / Памела Элджен. - М.: Попурри, 2015. - 666 с.; Батуева М.А. Методика развития гибкости у мужчин, занимающихся пауэрлифтингом, Метод-е пособие. Пермь-2017. -51 с.; Бумарскова Н.Н. Комплексы упражнений для развития гибкости / Н.Н. Бумарскова. МГСУ, 2022. - 572 с.;

bo'yicha ijro etiladigan texnik-taktik usullarga o'rgatish va takomillashtirish, ularni uzoq muddatli musobaqa sikllari davomida barqaror saqlanishiga imkon yaratuvchi jismoniy sifatlarni proporsional nisbatda tarbiyalash, ayniqsa ushbu jarayonlarda mushaklar cho'ziluvchanlikini oshirish va harakatlar koordinatsiyasini muvofiqlashtirishda yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan egiluvchanlikni rivojlantirish masalalari fundamental tadqiqotlar asosida ochib berilgan.

Xorijiy davlatlarda S.S.Falsone, D.E.Joyce, D.A.Lewindon, J.I.Warmyp, G.G.Haff, N.T.Triplett, J.M.Taylor, M.L.Weston, M.D.Portos, N.T.Triplett, T.W.Millerlar⁴ tomonidan egiluvchanlik qobiliyati nafaqat shu sifatni talab qiluvchi badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, akrobatika sport turlarida balki yakkakurash sport turlarida va xususan karateda zarba berish amplitudasini (perimetri)ni kengaytiruvchi, ularning koordinatsion aniqligini muvofiqlashtiruvchi omil sifatida rivojlantirish muammolari bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak 9-10 yshli karatechilarda bo'gimlar egiluvchanligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, bo'gimlar egiluvchanligini aniqlash va baholashda elektron uskunalar hamda uni qo'llanilish mexanizmini ishlab chiqish, bo'g'imlararo egiluvchanlik qobiliyatini obyektiv axborot beruvchi elektron o'lchov uskunasi yordamida baholash tajribasi tadqiqot ostiga olinmaganligi tadqiqot ishini dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №III-3-1 "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda biomexanik tahlilning optimallashtirilgan innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlar egiluvchanligini tarbiyalash metodikasi va uni elektron o'lchov uskunasi yordamida baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh karatechilarni bo'g'imlararo egiluvchanligini aniqlash uchun kompyuterlashtirilgan elektron o'lchov uskunasi ishlab chiqish;

9-10 yoshli karatechilarda tana qismlarini bukish va yozish harakatlari bilan amalga oshiriladigan mashqlarni mashg'ulot metodikasi kiritish evaziga bo'g'imlararo egiluvchanlik rivojlantirish;

9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlanish sur'atini oshirish asosida oyoqlarni ko'ndalang cho'zib tos-son va gilam oraliq yuzasini operativ baholash;

⁴ Falsone, S. Optimizing flexibility. In: D.Joyce and D.Lewindon, eds., High performance training for sports IST eg. Champaign, il. Human Kinetics, 2014.-pp.256-257.; Jeffreys. I. Warm-up and flexibility training. In: G.G. Haff and N.T. Triplett, eds., Essentials of strength training and conditioning, 4th ed. Champaign. Il: Human Kinetics, - PP. 317-350.; Taylor J.M., Weston M. and Portos, M.D. The effect of a short, practical warm-up protocol on repeated sprint performance. Journal of Strength and Conditioning Research, 27(7), 2013. - PP. 2034-2038.; Triplett N.T. Speed and agility. In: T. Miller, ed., NSCA's guide to tests and assessments, 1st ed. Champaign, IL: Human Kinetics, 2012. - PP. 253-267.

9-10 yoshli karatechilarda egiluvchanlik sifatini tarbiyalash asosida karatechilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish.

Tadqiqotning obyektini sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 1-son sport maktabi va hududiy sport maktablarida shug‘ullanuvchi 9-10 yoshli karatechilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini 9-10 yoshli karatechilarda bo‘g‘imlar egiluvchanligini rivojlantirishga qaratilgan elektron uskunada baholashda qo‘llaniladigan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa so‘rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, tana bo‘g‘imlarining egilish burchagi va yozish amplitudasi (kengligi, diapazoni)ni aniqlashga mo‘ljallangan an’anaviy metodik testlar, shu jumladan ularni yanada obyektiv baholash maqsadida yaratilgan innovatsion o‘lchov uskunasi va matematika-statistik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yosh karatechilarni bo‘g‘imlararo egiluvchanligini aniqlash uchun ishlab chiqilgan EO‘U-M kompyuterlashtirilgan elektron o‘lchov uskunasi foydalanib natijalarni katta tezlik va aniqlikda asosiy bo‘g‘imlarning egilish va yozish amplitudasini aniqlash va baholash hisobiga zarbalar diapozoni va kuchiga bo‘lgan ta’siri optimallashtirilgan;

9-10 yoshli karatechilarda tana qismlarini bukish va yozish harakatlari bilan amalga oshiriladigan mashqlarni faol yondashuv asosida ertalab to‘liq, har mashg‘ulot boshida va yakunida qisqartirilgan holda dinamik tartibda mashg‘ulot metodikasiga kiritish hisobiga bo‘g‘imlararo egiluvchanlik rivojlantirilgan;

9-10 yoshli karatechilarda bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni rivojlanish sur‘atini oshirish uchun ularni erta yoshlikdan qo‘llashda faol mashqlar asosida karateda yetakchi bo‘lgan turli holatlarda “shpagat” ushlarida qayd etiladigan egiluvchanlikni obyektiv baholashga moslashtirilgan bo‘g‘imlarni egilish va yozishga burchak gradusini aniqlashga qaratilgan testlar blokini ishlab chiqish hisobiga oyoqlarni ko‘ndalang cho‘zib tos-son va gilam oraliq yuzasini operativ baholash imkoniyatlari oshirilgan;

9-10 yoshli karatechilarda egiluvchanlik sifatini tarbiyalash uchun “faol-sust” mashqlar yordamida bo‘g‘imlararo harakatlarni simmetrik nisbatda shakllantirishga qaratilgan harakat amplitudasini keng diapazonda zarba berishni shiddatli qo‘llash (tos-son tizza-bo‘g‘imlar egilish graduslar barqarorligi va zahirasini aniqlash) hisobiga karatechilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish moduli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

9-10 yoshli karatechilar bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqilgan;

maxsus egiluvchanlikni tarbiyalashda bo‘g‘imlar mushaklariga “faol-sust” ta’sir etuvchi mashqlar nisbatini optimallashtiruvchi egiluvchanlik “zahirasini” aniqlash testlari takomillashtirilgan;

karatechilarda bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni baholashga ixtisoslashtirilgan innovatsion EO‘U-M kompyuterlashtirilgan elektron o‘lchov uskunasi orqali bo‘g‘imlar egiluvchanligini yanada obyektiv aniqlash imkoniyati oshirilgan;

ishlab chiqilgan va tajribada qo'llanilgan bo'g'im mushaklariga "faol-sust" ta'sir etuvchi mashqlar karatega xos egiluvchanlikni jadal hamda maqsadli rivojlantirish qiymatiga ega ekanligi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlardan olingan natijalarning ishonchliligi nazariy va uslubiy baza, ilmiy tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi vatanimiz va chet el olimlari, shuningdek, amaliyotchi murabbiylarning fikrlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi va o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni innovatsion o'lchov uskunasi yordamida baholash, maxsus harakatlarning real amplitudasi (kengligi, diapazoni), bo'g'imlarni bukish-yozish burchagi borasida to'laroq ma'lumot olishga imkon yaratishi, mushaklar elastikligi, cho'ziluvchanligi va egiluvchanlik zahirasi, karatechining yoshi, jismoniy imkoniyatlari va sport tayyorgarligiga qarab bo'g'imlar mushaklariga "faol-sust" ta'sir etuchi mashqlarni optimallashtirishdagi nazariy bilimlarini boyitishi va kengaytirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni bir vaqtning o'zida "gradus", "santimetr" o'lchov birligi, innovatsion o'lchov uskunasi yordamida baholash metodikasi, ularni qo'llash texnologiyasiga takomillashtirilgan variantda yondashish, egiluvchanlikni jadal va maqsadli rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan bo'g'imlar mushaklariga "faol-sust" ta'sir etuvchi mashqlar nisbatini optimallashtirilgan tartibda qo'llash, jismoniy qobiliyatni samarali tarbiyalashga imkon yaratishi va bunday holat karatechilarda zarba berish chegarasini kengaytirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni tarbiyalash metodikasi va uni zamonaviy elektron uskunalar yordamida aniqlash va baholashga qaratilgan vositalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

yosh karatechilarni bo'g'imlararo egiluvchanligini aniqlash uchun ishlab chiqilgan EO'U-M kompyuterlashtirilgan elektron o'lchov uskunasi bilan foydalanib natijalarni katta tezlik va aniqlikda asosiy bo'g'imlarning egish va yozish amplitudasini aniqlash va baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston karate milliy federatsiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining karate mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-fevraldagi 4/420-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu yosh guruhiga mansub karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlik 19,89% gacha o'sishiga erishilgan.

9-10 yoshli karatechilarda tana qismlarini bukish va yozish harakatlari bilan amalga oshiriladigan mashqlarni faol yondashuv asosida ertalab to'liq, har mashg'ulot boshida va yakunida qisqartirilgan holda dinamik tartibda mashg'ulot metodikasi kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 1-son sport maktabi karate mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-

yil 20-fevraldagi 4/420-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur yosh karatechilar gavadani oldinga egish 21,36% gacha yaxshilanishga erishilgan.

9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlanish sur'atini oshirish uchun ularni erta yoshlikdan qo'llashda faol mashqlar asosida karateda yetakchi bo'lgan turli holatlarda "shpagat" ushlarida qayd etiladigan egiluvchanlikni obyektiv baholashga moslashtirilgan bo'g'imlarni egish va yozishga burchak gradusini aniqlashga qaratilgan testlar blokini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus shahar Respublika sportning yakka kurash turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi karate mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-fevraldagi 4/420-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'g'imlararo egiluvchanlikning umumiy o'sish sur'ati yosh karatechilarda 9,97% gacha oshgan.

9-10 yoshli karatechilarda egiluvchanlik sifatini tarbiyalash uchun "faol-sust" mashqlar yordamida bo'g'imlararo harakatlarni simmetrik nisbatda shakllantirishga qaratilgan harakat amplitudasini keng diapazonda zarba berishni shiddatli qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 1-son sport maktabi karate mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-fevraldagi 4/420-son ma'lumotnomasi). Natijada, chap oyoqni oldinga cho'zib, "shpagat" ushlarida bo'yicha 11,98% gacha, o'ng oyoqni oldinga cho'zib "shpagat" ushlarida 15,93% gacha, yaxshilanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 11 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bobdan iborat bo'lib, 141 sahifali matn, 18 ta rasm, 19 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi bilan asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi bayon qilingan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti aniqlangan. Tadqiqot uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "**Yosh karatechilarda bo'g'imlar egiluvchanligini tarbiyalash va baholash muammolari bo'yicha o'rganilganlik holati**" deb nomlangan birinchi bobida sport amaliyotida, shu jumladan sharqona yakkakurash sport turlarida ham bo'g'imlararo egiluvchanlikning ustuvor va ko'r qirrali ahamiyati ochib berilgan bo'lib, uning u yoki bu darajada shakllanganlik harakatlar amplitudasi,

texnik-taktik usullar samaradorligi, hatto jismoniy sifatlarga ham ta'sir etishi asoslab berilgan.

Inson tug'ilishidan boshlab umrining so'nggi davrlarigacha o'zining faoliyat turlarini muvofiq harakatlar yordamida amalga oshirishi tabiiydir. Fundamental tadqiqotlardan ma'lumki, ana shu harakatlar erkinligi (amplitudasi, koordinatsiyasi, tezligi, kuchi, aniqligi) va ularning foydali natijadorligi ustuvor jihatdan bo'g'imlararo egiluvchanlikka bog'liq ekan. Yetakchi mutaxassis-olimlar etirofiga ko'ra, egiluvchanlik – bu tayanch holat va harakat apparatining morfofunktsional xususiyatlarini ifodalovchi jismoniy sifat (qobiliyat) bo'lib, barcha harakatlar amplitudasi (kengligi)ni belgilaydi. Agar bo'g'imlararo egiluvchanlik, masalan, sportchilarda yetarli rivojlanmagan bo'lsa, u yoki bu harakat turini, uni ijro etish texnikasi va taktikasini o'zlashtirish (unga o'rgatish) sur'ati susayishi, qiyinlashishi kuzatilar ekan.

J.K. Xolodov, V.S. Kuznetsovlarning ma'lumotlariga qaraganda, agar nisbatan qisqa muddat davomida, masalan, 3-4 oy ichida harakat erkinligini ta'minlovchi egiluvchanlikni rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelsa, bunday holatda qo'llaniladigan turli toifaga mansub egiluvchanlik mashqlarining nisbati 40% – faol, 40% – sust, 20% – statik xususiyatga ega bo'lishi darkor ekan. Yosh ulg'aygan sari faol mashqlar hajmi ko'proq, statik mashqlar hajmi kamroq bo'lgani maqsadga muvofiq ekan. Har tomonlama ta'sir etuvchi egiluvchanlik mashqlarini statik pozitsiyalarda "prujinasimon" tartibda mashg'ulot va musobaqalar oldidan "stretching-razminka" shaklida takrorlash barcha ichki va tashqi ijrochi organlar funksiyalarini "jangovor" faollikka olib kelishi etirof etiladi. A.V.Pavlenkning ta'kidlashiga ko'ra Sankt-Peterburg shahrida talabalar orasida taekvondo sport turini ommalashtirish va sportchilarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini aniqlagan. U G.V.Rudenko va Yu.I.Vinogradov bilan birgalikda taekvondo shug'ullanuvchilarining jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan ko'p dasturlarni o'rganib chiqishgan. Pavlenkning metodi talaba-taekvondochilarning mashg'ulotlarini o'quv jarayoni bilan muvozanatlashtirishga asoslanadi. Tadqiqotlar taekvondo mashg'ulotlari talabalarning tezlik, muvofiqlashtirish va ruhiy chidamliligini oshirishini ko'rsatadi. Uning uslubida texnik harakatlarning aniqligi, jamoaviy ish va musobaqalarga tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Pavlenko individual yondashuv va talabalar yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligi haqida fikir yuritgan. Bu yondashuv Sankt-Peterburgdagi talabalar taekvondosini rivojlantirishda samarali natija ko'rsatgan.

Egiluvchanlikni faol va sust mashqlar yordamida o'stirish davomida, birinchidan, mushaklar elastikligi va cho'ziluvchanligining ortib borishi, ikkinchidan, bo'g'imlar oraliqlarida, nerv-mushak to'qimalarida kun-tun davomida to'planib, qatlamlashib qoladigan va ma'lum vaqt ichida zaharli aylanadigan moddalarni siqib chiqarilishi, uchinchidan, mashg'ulotlarda shikastlanishlar oldini olishga imkon yaratishi fundamental va amaliy tadqiqotlar asosida yoritilgan (L.P.Matveyev, V.N.Platonov, J.N.Xolodov, V.S.Kuznetsov, M.Dj.Alter, N.T.Trinlett, Choy Sung Mo). Yakkakurash sport turlarida, jumladan boks, kurash va taekvondoda bo'g'imlararo egiluvchanlikni muntazam rivojlantirib borish harakatlar yoki zarbalar diapazonini kengaytirishi, ularning natijadorligiga ijobiy ta'sir etishi yoritilgan (M.S.Terzi, A.N.Korneyeva, D.V.Kuvanov, R.V.Kamnev, D.V.Yaroshenko). Shu bilan bir qatorda yosh karatechilar misolida bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi, uni

o'sish sur'ati, ayniqsa karateda yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan tos-son va umurtqa egiluvchanligini shakllantirish hamda ob'yektiv axborot beruvchi instrumental asboblarning yordamida baholash imkoniyatlari o'rganilmagani aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari, ularning texnologik mohiyati va tashkil qilish tartibi”** deb nomlangan ikkinchi bobida mavzu bo'yicha belgilangan maqsad va vazifalarni hal etish maqsadida 9-10 yoshli karatechilar misolida joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba o'tkazilgan bo'lib, bu borada quyidagi metodlar, an'anaviy testlar va dissertant tomonidan yaratilgan, egiluvchanlikni baholashda ob'yektiv axborot beruvchi “EO‘U-M” kompyuterlashtirilgan o'lchov uskunasi foydalanilgan (2-rasm); adabiyotlar tahlili; pedagogik kuzatuv, ekspress-so'rovnoma, pedagogik testlar, goniometriya, pedagogik tajriba va matematik statistika usullari.

Tadqiqotlar 4 ta bosqichda tashkil etilgan:

1-bosqichda mavzu hamda uning doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslash maqsadida ushbu muammoni o'rganilganlik darajasi chop etilgan va internet tarmog'ida e'lon qilingan manbalar qiyosiy tahlil qilingan (2021-yil fevral-aprel).

2-bosqichda joriy tadqiqotlarni o'tkazish rejasi ishlab chiqildi, qo'llaniladigan testlar tanlandi, ularning ob'yektivligi va olinadigan natijalar ishonchligini oshirish maqsadida bo'g'implararo egiluvchanlik burchagi hamda oralig'ini o'lchash – baholash metodikasiga ayrim o'zgartirishlar kiritildi (egilish burchagi va oralig'i bir vaqtning o'zida ham “sm”, ham “gradus” o'lchov birliklari, o'lchash nuqtalari va h.k.) va “test-retest” sinovlari o'tkazilgan (2021-yil may-iyun).

3-bosqichda tadqiqot obyektlarida 9-10 yoshli karatechilar va yosh karatechilar ustida joriy tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalar tabaqa-lashtirildi va matematik-statistika usullari yordamida ishlov berilgan holda jadvallar hamda diagrammalar tuzildi (2021-yil sentabr-2022-yil iyun).

4-bosqichda 9-10 yoshli karatechilar ustida 9 oylik pedagogik tajriba o'tkazildi. Olingan natijalar tabaqalashtirilgan statistik usullarga asoslangan jadvallarga muvofiq qiyosiy tahlil qilindi. Xulosalar, amaliy tavsiyalar, ilovalar va bibliografik manbalar ro'yxati, dissertatsiya va avtoreferat OAK talablari bo'yicha tayyorlandi (2022-yil sentabr-2023-yil iyun).

Dissertatsiyaning **“Yosh karatechilarda egiluvchanlikni baholash tajribasini o'rganish natijalarining tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida 9-10 yoshli karatechilar bilan o'tkazilgan joriy tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, pedagogik kuzatuv natijalaridan ma'lum bo'ldiki, 9-10 yoshli karatechilar bilan o'tkazilgan 24 ta mashg'ulot davomida asosiy bo'g'implararo egiluvchanlikni rivojlantirish bo'yicha jami 50,7 ta maxsus mashqlar qo'llanilgan va har bir mashg'ulotda qo'llanilgan mashqlarni o'rtacha soni 7,2 martani tashkil etgan. Barcha mashqlarni qo'llash uchun sarflangan vaqt 16,7 daq. ga teng bo'lgan, 7,2 mashqni bajarish uchun o'rtacha 2,4 daq. sarflangan. Malakali karatechilarda mazkur ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 45,8/6,5 martani, ularga sarflangan vaqt 14,9/2,1 daq. ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, yosh karatechilarda ham, malakali karatechilarda ham asosiy bo'g'implararo egiluvchanlikni rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlarning umumiy va o'rtacha soni ham, ularga sarflangan vaqt ham yetarli nisbatda qo'llanilmas ekan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan aniqlandiki, mazkur tadqiqotga respondent sifatida jalb qilingan murabbiylar va malakali karatechi-talabalar egiluvchanlikning

fiziologik mohiyati, uni karate amaliyotidagi ustuvor ahamiyati haqida yetarli bilim zahirasiga ega emas ekanlar (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Karateda egiluvchanlikning o‘rni va amaliy ahamiyati mavzusida murabbiylar va malakali karatechi-talabalardan iborat respondentlar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari (n=40)

T/r	Savollar	Javoblar			
		M – n=20		KT – n=20	
		Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q
		S/%	S/%	S/%	S/%
1.	Egiluvchanlikning fiziologik mohiyati va amaliy ahamiyatini bilasizmi?	13/65	7/35	6/30	14/70
2.	Egiluvchanlik mashqlari harakatning qaysi xususiyatlarini shakllantirishini bilasizmi?	9/45	11/55	3/15	17/85
3.	Egiluvchanlik kuch sifatini rivojlantirishga “hissa” qo‘shadimi?	8/40	12/60	2/10	18/90
4.	Egiluvchanlik harakat koordinatsiyasi va aniqligini shakllantirishga “hissa” qo‘shadimi?	7/35	13/65	4/20	16/80
5.	Egiluvchanlik mushaklarni kuchlanish chegarasini farqlashga ”hissa” qo‘shadimi?	2/10	18/90	0/0	20/100
6.	Egiluvchanlikning bo‘g‘im va mushaklarda to‘planadigan qanday moddalardan xalos qilishini bilasizmi?	5/25	15/75	0/0	20/100
7.	Egiluvchanlik mashqlari bilan shug‘ullanish qanday xavfni oldini olishini bilasizmi?	16/80	4/20	7/35	13/65
8.	Ertalab egiluvchanlik mashqlari bilan mustaqil shug‘ullanasizmi?	3/15	17/85	5/25	15/75
9.	Egiluvchanlik haqida chop etilgan manbalar bilan tanishib borasizmi?	3/15	17/85	1/5	19/95
10	Faol va sust egiluvchanlik haqida tasavvurga egamisiz?	4/20	16/80	0/0	20/100
11	Egiluvchanlikni qanday test va asboblarda yordamida baholashni bilasizmi?	16/80	4/20	4/20	16/80

Izoh: M – murabbiylar; KT – karatechi-talabalar; S – soni.

Masalan, egiluvchanlikning fiziologik mohiyati va amaliy ahamiyatini bilasizmi? deb nomlangan savolga 35% murabbiylar va 70% malakali karatechilar “yo‘q” deb fikr bildirishdi. Yoki birinchi guruh respondentlarining 55%, ikkinchi guruh respondentlarining 85% egiluvchanlik mashqlarining asosiy funksiyasi harakatlar (zarbalar) amplitudasini kengaytirishi haqida tasavvurga ega emas ekanlar. Ular egiluvchanlik bo‘g‘im va mushaklarda to‘planadigan “shlaklarni tozalashi”, ularning elastikligini oshirishi, bu borada qo‘llaniladigan faol va sust mashqlar mohiyati haqida ham yetarli bilim bilan qurollanmagan ekanlar.

Joriy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 9-10 yoshli karatechilarda asosiy bo‘g‘imlararo egiluvchanlik qobiliyati bir tekisda va simmetrik nisbatda sayqal topmagan ekan. Jumladan, o‘tirib, gavdani oldinga egishda bosh-tizza oralig‘i individual ko‘rsatkichlar bo‘yicha 3,1-14,5 sm. ga teng diapazonda qayd etilgan bo‘lsa, o‘rtacha statistik ko‘rsatkich $6,87 \pm 1,73$ sm. ni tashkil etgan (2-jadvalga qarang).


Karate bilan shug‘ullanishni boshlagan 9-10 yoshli o‘g‘il bolalarda bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni rivojlanganlik darajasi, n-35

T/r	Testlar	min-max	$\bar{X} \pm \sigma$
1.	O‘tirib, gavnani tizza tomon egish, sm.	3,1-14,5	6,87±1,73
2.	Tik holatdan gavnani orqaga egish, sm.	3,5-27,5	16,5±2,18
3.	“Most” shaklida egilish, sm.: - bel-gilam balandligi; - qo‘l-oyoqlar oralig‘i	40,5-66,0 32,5-64,5	53,6±3,07 49,8±2,52
4.	Tik holatdan gavnani oldinga egish, sm.	4,0-21,5	7,54±2,13
5.	Chap oyoq oldinda – to‘g‘ri shpagat, sm.	10,0-33,1	19,7±2,23
6.	O‘ng oyoq oldinda – to‘g‘ri shpagat, sm.	6,8-29,5	16,2±2,12
7.	Ko‘ndalang shpagat, sm.	2,4-34,2	14,1±1,57

Izoh: - egiluvchanlik “sm” o‘lchov birligida baholangan; - 1 va 4-testlarda bosh-tizza oralig‘i, 2-testda bosh-gilam balandligi, 5, 6 va 7-testlarda tos-gilam oraliqlari o‘lchangan.

Biroq, tik holatdan gavnani orqaga egishda bosh-gilam oralig‘i muvofiq ravishda 3,5-27,5 sm., o‘rtacha ko‘rsatkich 16,5±2,18 sm. ga teng bo‘lgan. “Most” holatida egilishda bel-gilam oralig‘i (balandligi) 40,5-60,0 sm., o‘rtacha ko‘rsatkich 53,6±3,07 sm. bilan qayd etilgan (1-rasmga qarang).

Chap va o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib, “shpagat” ushlashda tos-gilam oralig‘i muvofiq ravishda o‘rtacha 19,7±2,23 sm. va 16,2±2,12 sm. ni tashkil etgan. Demak, bunday ko‘rsatkichlar yosh karatechilarda bo‘g‘imlararo egiluvchanlik, birinchidan, notekis va sust rivojlanishidan darak bersa, ikkinchidan, uni asimmetrik nisbatda sayqal topganini tasdiqlaydi.



1-rasm. 9-10 yoshli karatechilarda qayd etilgan egiluvchanlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan asimmetrik farqni ifodalovchi diagrammalar

Izoh: - 4-test – tik holatdan gavnani oldinga egishda bosh-tizza oralig‘i, sm.; - 2-test – tik holatdan gavnani orqaga egishda bosh-gilam oralig‘i, sm.; - 5-test – chap oyoqni oldinga cho‘zib, “shpagat” ushlashda tos-gilam oralig‘i, sm.; - 6-test – o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib, “shpagat” ushlashda tos-gilam oralig‘i, sm.

9 va 10 yoshli karatechilarni tadqiqotga alohida jalb qilish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, ularda qayd etilgan bo‘g‘imlararo egiluvchanlik ko‘rsatkichlari bir-biridan keskin farq qilmagan. Shuning uchun ham ushbu yosh guruhlariga mansub karatechilarni amalda ham, tadqiqotda ham bir guruhga birlashtirish maqsadga muvofiq deb fikr yuritish mumkin. Mazkur tayyorgarlik guruhida bo‘g‘imlararo

egiluvchanlikni bir o'quv-mashg'ulot yilida o'sish sur'atini o'rganish an'anaviy mashg'ulotlarda shu qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan etibor va qo'llaniladigan mashqlarning muntazamligi hamda ularning ta'sirchanligini bilish imkoniyati yaratildi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gavdani oldinga va orqaga egish, "most" holatida egilish, chap va o'ng oyoqni oldinga cho'zib, "shpagat" ushlar hamda ko'ndalang shaklda "shpagat" ushlarida tos-son va umurtqa bo'g'imlari egiluvchanligining dastlabki natijalari ushbu qobiliyatni sust darajada sayqal topganini (gavdani oldinga egish bundan mustasno) aks ettirgan bo'lsada, uning 9 oylik mashg'ulotlar yakunida qayd etilgan o'sish sur'ati 0,36-2,90 sm. ni tashkil etganligi kuzatildi.

3-jadval

9-10 yoshli karatechilarda gavdani turli tomonlarga egish burchagini (gradus) o'quv-mashg'ulot yili davomida o'sish sur'ati – n-35 ($\bar{X} \pm \sigma$)

T/r	Testlar	2022-yil sentabr	2023-yil iyun	O'sish farqi
1.	Tik holatdan gavdani oldinga egish burchagi	171,3±5,67	174,5±5,88	3,2
2.	Tik holatdan gavdani orqaga egish burchagi	85,5±4,09	89,7±4,36	4,2
3.	Tik holatdan gavdani o'ngga egish burchagi	43,7±4,13	45,8±4,11	2,1
4.	Tik holatdan gavdani chapga egish burchagi	44,9±4,03	47,2±4,07	2,3

9-10 yoshli karatechilarda ayrim bo'g'imlararo egiluvchanlikni goniometr o'lchov asbobi yordamida baholash davomida shu narsa kuzatildiki, tik holatdan gavdani oldinga va orqaga, o'ng va chap tomonga egish ko'rsatkichlari, birinchidan, hatto o'rtacha darajagacha ham yetmagan (gavdani oldinga egishdan tashqari) – 85,5±4,09-89,7±4,36°; 43,7±4,13-45,8±4,11°; 44,9±4,03-47,2±4,07° (3-jadvalga qarang). Ikkinchidan, gavdani oldinga va orqaga egishda o'quv-mashg'ulot yili boshida 85,8° ga teng asimmetrik farq gavdani oldinga egish foydasiga qayd etilgan. O'quv-mashg'ulot yili yakunida bu farq 84,8° ni tashkil etgan. Gavdani o'ng va chap tomonga egish burchagi 50% ni ham tashkil etmagan, asimmetrik farq esa kichik bo'lgan va 1,2-1,4° bilan gavdani chap tomonga egish foydasiga hal bo'lgan.

Bunday holat mazkur karatechilarda erta yoshlikdan boshlab har tomonlama jadal rivojlantirilmaganligidan va sport mahoratini takomillashtirish bosqichida olib borilgan mashg'ulotlarda mashqlar ta'sirchanligi va ularni qo'llash muntazamligiga etibor susaytirilganligidan darak beradi.

Hozirgi kunda zomoviy sportda sportchilarni tayyorlash ularni tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlashda zamonaviy innovatsion uskunalardan foydalanish talabi qo'yilmoqda. Karate sport turida zarba berish, tepish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli bo'g'imlararo egiluvchanlik gradusini aniqlash hamda egiluvchanlik qobiliyatini tarbiyalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Buni inobatga olib yosh karatechilarni tayyorlashda bo'g'imlar egiluvchanligi muhim bo'lganligi sababli turli simmetrik va aasimmetrik harakatlarni graduslarini aniqlash va baholash uchun biz tomonimizdan innovatsion o'lchov uskunasi ishlab chiqildi.


“EO‘U-M” elektron o'lchov uskunasi texnik tafsiloti. “EO‘U-M” elektron o'lchov uskunasi bir qator texnik qurilmalardan tarkib topgan bo'lib, oddiy elektr

tokida ishlashga moslashtirilgan va axborotni uzatuvchi datchik maxsus kabel orqali kompyuterga ulanadi.

2-rasmda uskunaning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan, 3-rasmda esa uskunaning sxematik andozasi va uning tarkibiy ko‘rinishlarining nomi aks ettirilgan.



2-rasm. Uskunaning (EO‘U-M) umumiy ko‘rinishi



3-rasm. Uskunaning sxematik andozasi va uning tarkibiy qurilmasi

Uskunada SGM 32 F 103 C 8 T6 – seriyali mikroprotssessor o‘rnatilgan bo‘lib, u bo‘g‘imlarni egish-yozish ta‘sirini rezistorlardan iborat datchiklar yordamida raqamli signalga aylantiradi. Bo‘g‘imlarni egish-yozish ta‘sirini qabul qiluvchi va uzatuvchi rezistor hamda mikroprotssessor yordamida natijalarni (axborotni) katta tezlik va aniqlikda kompyuter monitorida qayd etish bilan bir qatorda xotiraga kiritadi va

saqlaydi. Kompyuter monitorida sportchining ismi-sharifi, tana-qo'l-oyoq uzunligi va qayd etiladigan natija aks ettiriladi. Natijalarni qayd etish, o'chirish, qayta tiklash yoki xotirada saqlash funksiyalari maxsus "knopkalar" (klavishlar) orqali amalga oshiriladi. Mazkur ma'lumotlar monitorida jadval shaklida qayd etiladi.

Egiluvchanlik mashqlarini (masalan, chap yoki o'ng oyoqni oldinga cho'zib, shpagat ushlar, oyoqlarni ko'ndalang yo'nalishda yozib, shpagat ushlar) bajaruvchi sportchi joylashadigan platforma – uzunligi 240 sm., eni 60 sm., qalinligi 8 sm. Platforma bir-biriga zich va yassi ulangan ikki bo'limdan iborat (1). Temir plastinkadan tayyorlangan ustun – uzunligi 130 sm., eni 5 sm. (2). O'lchovchi karetk shtangasi – uzunligi 12 sm., 8/10 sm. (3). O'lchaydigan shtanga – diametri 7 sm., uzunligi 55 sm. (4). O'lchaydigan datchik – balandligi 10 sm., uzunligi 17 sm., eni 8 sm. (5), elektron blok – 8x11 sm. (6). Trubka – baraban ichida qarshi og'irlik ta'sirida harakatlanadigan uskuna – diametri 15 sm., uzunligi 120 sm. (7). O'lchaydigan datchik barabanining harakatlantiradigan tross-sim (8). Qarshi og'irlik ta'sirida barabanni qaytaradigan tross-sim (9). Qarshi og'irlikni yo'naltiradigan "truba" (10). Uskuna tarkibiga mansub mazkur texnik qurilmalarning integrallashgan ish funksiyasi bo'g'imlarni egish-yozish burchagi va oralig'i haqida ishonchli axborotni qayd etadi.

Uskunani ishga tushirish tartibi:

1. Uskuna elektr tokiga ulanadi.
2. Uskuna USB kabeli yordamida kompyuterga ulanadi.
3. Kompyuterda Splits Master Dasturi ishga tushiriladi.
4. Monitorida qayd etilgan jadvalga sportchi haqidagi zarur ma'lumotlar kiritiladi.
5. Sportchi uskuna platformasida joylashadi va "тестирование" knopkasi bosiladi (11-rasm).
6. Maxsus knopka yordamida natija e'lon qilinadi va xotira bazasiga kiritiladi.
7. O'lchovlar tugaganida uskuna o'chiriladi.

"EO'U-M" – kompyuterlashtirilgan elektron o'lchov uskunasi texnik tafsiloti va undan foydalanish metodikasi. Mazkur elektron uskuna sport amaliyotida, shu jumladan karatechilarda asosiy bo'g'imlarning (tos-son, umurtqa) egish-yozish burchagini (amplitudasini) aniqlash yoki baholashga mo'ljallangan bo'lib, kompyuter dasturiga asoslangan va qayd etiladigan axborotni yuqori aniqlikda (0,7-1,0 gradus va 0,7-1,0 sm.) o'lchash imkoniyatiga egadir. Bo'g'imlarni egish-yozish burchagi (gradusda) va oralig'i (santimetrda) haqidagi natijalar kompyuter monitorida qayd etiladi va ular xotira bazasida (papkasida) saqlanadi.

E'tiborni tortuvchi yana bir muammo kuzatiladiki, 9-10 yoshli karatechilarda chap oyoqni oldinga cho'zib, "shpagat" ushlarida qayd etilgan egiluvchanlik o'ng oyoqni oldinga cho'zib, "shpagat" ushlarida namoyish etilgan egiluvchanlikka nisbatan sust darajada sayqal topgani aniqlandi. Bunday egiluvchanlik variantlarida qayd etilgan katta asimmetrik farq avvalgi tadqiqotlarda ham, o'quv-mashg'ulot yili boshida va yakunida o'tkazilgan tadqiqotlarda ham u yoki bu darajada saqlanib qolganligi kuzatilgan. Demak, ta'kidlash joizki, o'ng va chap oyoqni oldinga cho'zib, "shpagat" ushlarida, oldinga va orqaga egilishda, tik holatdan gavdani o'ng va chap tomonga egish yoki burishda qo'llaniladigan mashqlar nisbati shunday taqsimlanishi zarurki, tomonlar bo'ylab namoyish etiladigan egiluvchanlik simmetrik tartibda sayqal topadi.

**9-10 yoshli karatechilarni asosiy bo‘g‘imlararo egiluvchanligini
rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi**

T/r	Mashqlar mazmuni	Bajarish vaqti	Takrorlash soni
1	Jipslashtirilgan oyoqlarni cho‘zib o‘tirgan holatda gavda-boshni tizzalar tomon egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
2	Oyoqlarni bir-biridan maksimal uzoqlashtirib o‘tirgan holatda gavda-boshni oldinga egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
3	“Chalqancha” yotgan holatdan jipslashtirilgan oyoqlarni ko‘tarib peshona tomon egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
4	“Chalqancha” yotgan holatdan oyoqlarni bir-biridan maksimal uzoqlashtirilgan holatida bajariladi	30 soniya	3 marta
5	Gimnastik “ko‘prik” mashqini bajarish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
6	Gimnastik “ko‘prik” mashqini boshga tayangan holatda bajarish shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
7	1-2-3-4-5-6-mashqlarni sust tartibda, ya‘ni ular 5 kg. li to‘ldirma to‘pni yuklab bajariladi.	30 soniya	3 marta
8	Tizzalarni bukib, boldirlarga o‘tirgan holatdan gavda-boshni tatami yuzasi tomon egilish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
9	Chap tizzani bukib, boldirga o‘tirgan holatdan gavda-boshni tatami yuzasi tomon egish mashqini bajarish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
10	O‘ng tizzani bukib, boldirga o‘tirgan holatdan gavda-boshni tatami yuzasi egish mashqini bajarish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
11	“Chordana qurib” o‘tirgan holatdan gavda-boshni tatami yuzasi tomon egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
12	O‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” mashqini bajarish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
13	Chap oyoqni oldinga cho‘zib, “shpagat” mashqini bajarish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
14	Ko‘ndalang shaklda oyoqlarni yon tomonlarga cho‘zib “shpagat” mashqini bajarish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
15	12-13 mashqlarni bajarishda gavda-boshni oldinga cho‘zilgan oyoq tizzasi tomon egilish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
16	12-13 mashqlarni bajarishda gavda-boshni orqaga cho‘zilgan oyoq tomon egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
17	14- mashqni bajarishda gavda-boshni chap va o‘ng oyoq tomonga egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta
18	14- mashqni bajarishda gavda-boshni oldinga – tatami yuzasi tomon egish va shu holatni saqlash	30 soniya	3 marta

Bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni rivojlantirishda bunday yondashuvga asoslanish karateda turli tomonlar bo‘ylab ijro etiladigan usullar amplitudasi, birinchidan, keng diapazonda amalga oshiriladi, ikkinchidan, zarba berish zonalari va ularning chegarasi


kengayadi. Shuning uchun ham barcha yosh va sport malakasiga mansub karatechilar mashg'ulotlarida tos-son va umurtqa bo'g'imlarining o'zaro egiluvchanligini maqsadli shakllantirishga alohida etibor berilishi zarur. Bu borada chop etilgan ilmiy manbalardan ma'lumki, masalan, 7-14 yoshli o'g'il bolalarda umurtqa pog'onasini yozish mashqlarini qo'llashda egiluvchanlikning ortishi, lekin 7-12 yoshli qiz bolalarda, aksincha, egiluvchanlik susayishi mumkin ekan.

7-10 yoshli o'g'il bolalarda umurtqa pog'onasini bukishda egiluvchanlikning ortishi, 11-13 yoshda esa susayishi kuzatilar ekan. Bo'g'imlararo egiluvchanlikning eng yuqori darajasi o'g'il bolalarda 15 yoshda, qiz bolalarda esa 14 yoshda qayd etilishi ko'rsatib o'tilgan, bo'g'imlararo egiluvchanlikni, ayniqsa oyoq-qo'l zarbalari ustunligida kechadigan yakkakurash sport turlariga xos egiluvchanlikni 7-8 yoshdan 14-15 yoshgacha faol va sust mashqlar yordamida rivojlantirish ko'proq natija berishi muqarrar ekan.

Qayd etilgan mashqlarni 4, 5 oy davomida ertalab to'liq holda, har bir mashg'ulot boshida va yakunida qisqartirilgan tartibda muntazam qo'llangandan so'ng, yana 4, 5 oy davomida bir kun vaqtga (holatlarni saqlash), bir kun dinamik tartibda 5-6 martadan takrorlanadi. Ushbu mashqlarni dinamik tartibda takrorlash faqat faol yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bu mashqlarni biz 9-10 yoshli karatechilar jalb qilingan bo'lib, ularda tadqiqotlarimiz (o'quv mashg'ulotlari) jarayonida muntazam bajarib bordi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida yosh karatechilarni tayyorlash jarayonida bo'g'imlar harakatchanligi ya'ni egiluvchanlikning optimal rivojlanishi muhim omil sifatida qaraladi. Karate sport turida egiluvchanlik texnik harakatlarni jumladan, yuqori darajali zarbalar, kombinatsiyalarni to'g'ri va samarali bajarish uchun zarur hisoblanadi. 9-10 yoshli karatechilar organizmda mushak-pay tizimining elastikligi yuqori, harakatchanlik imkoniyatlari katta bo'lgan davr hisoblanadi. Shu sababli, aynan ushbu yoshdagi karatechilarning bo'g'imlar egiluvchanligini ilmiy asosda aniqlash, baholash va rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. 9-10 yoshdagi karatechilarning bo'g'imlar egiluvchanligi darajasini ilmiy asosda aniqlash va baholash uslubini ishlab chiqish hamda samarali mashg'ulotlar tizimi orqali ularning harakat amplitudasini oshirish metodikasi tadqiqotlarimiz davomida ishlab chiqildi. Ushbu metodikadan muntazam foydalanish orqali 9-10 yoshli karatechilarning bo'g'imlar egiluvchanlik darajasi muntazam ravishda aniqlanib, yosh xususiyatlariga moslashtirilgan mashqlar tizimi asosida rivojlantirilsa, ularning texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari va sport natijalari sezilarli darajada oshishga erishiladi. 9-10 yoshdagi bolalarning anatomo-fiziologik rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, karate sporti texnikasida bo'g'im harakatchanligining ahamiyatini tahlil qilish, bo'g'imlar egiluvchanligini aniqlash va baholash usullarini ishlab chiqish, maxsus cho'zish mashqlar tizimini tuzish va amaliyotga joriy etish, mashg'ulotlar samaradorligini eksperimental tekshirish va ilmiy asoslash imkonini beradi. 9-10 yoshli karatechilar bo'g'imlar egiluvchanligini aniqlash va baholash mexanizmlarida innovatsion uskunalaridan foydalanish xususiyatlari belgilab berildi. Unga ko'ra EO'U-M elektron o'lchov uskunasiidan foydalanish hamda EO'U-M elektron o'lchov uskunasining texnik ko'rsatkichlari yoritilgan.

9-10 yoshli karatechilarni bo'g'imlar egiluvchanligini aniqlash va baholash mexanizmlari



4-rasm. 9-10 yoshli karatechilarni bo'g'imlar egiluvchanligini aniqlash va baholash



5-rasm. 9-10 yoshli karatechilarni egiluvchanlik sifatini rivojlantirish moduli

Aniqlangan parametrlar innovatsion o'lovchilik uskunasi baholash an'anaviy usullar orqali baholashga nisbatan optimal hamda ishonchlilik darajasi yuqori bo'lish imkoniyatlari kengaytirilgan. Shu bilan birga tadqiqotimiz davomida 9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlar egiluvchanligini tarbiyalash metodikasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra 9-10 yoshli karatechilarni asosiy bo'g'imlararo egiluvchanligini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi hamda turli tayyorgarlik bosqichlarida shug'ullanuvchi karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlantirish vositalari saralandi. Tajriba guruh mashg'ulot jarayonida faol va sust egiluvchanlikni rivojlantirish vositalari saralandi hamda uni qo'llash metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodikan qo'llash orqali tos-son, tizza bo'g'imlar egiluvchanligini rivojlantirishga, egiluvchanlik barqarorligini saqlash, bo'g'imlararo egiluvchanlik amplitudasini oshirish, bo'g'imlararo egiluvchanlikni simmetrik nisbatda shakllantirish, oyoq bilan zarba berishda koordinatsiyani muvofiqlashtirishga erishiladi. Shu bilan birga buyumlar bilan va buyumlarsiz yakka-juftlikda bajariladigan mashqlarni keng diapazonda zarba berishni shiddatli qo'llash orqali assimetrik nisbatda sayqallash hamda egiluvchanlikni rivojlantirish orqali mushaklar kuchlanish chegarasini farqlash imkoniyatlari kengaytiriladi. Bundan tashqari yosh karatechilarda egiluvchanlikning fiziologik mohiyati va amaliy ahamiyatiga qarab egiluvchanlik va harakat koordinatsiya muvofiqlikda qo'llash orqali egiluvchanlik vositalari yordamida bo'g'im va mushaklardagi ortiqcha moddalardan xolos bo'lish imkoniyatlari oshirib borishga erishiladi.

Dissertatsiyaning **“Nazorat va tajriba guruhlaridan iborat 9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni 9 oylik pedagogik tajriba davomida olingan natijalar tahlili”** deb nomlangan to'rtinchi bobida turli tayyorgarlik bosqichlarida shug'ullanuvchi karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlantirish va baholash tajribasi, karate bilan shug'ullanishni boshlagan 9-10 yoshli o'g'il bolalarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlanganlik darajasi, 9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikning o'zaro farqi va uni o'quv-mashg'ulot yili davomida o'sish sur'ati, karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni o'quv-mashg'ulot yili davomida o'sish sur'ati, innovatsion texnologiyalar orqali egiluvchanligini baholash metodikasi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tajriba jarayonida an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullanishni davom ettirgan NGda va ushbu jarayonda biz tomonimizdan tavsiya etilgan eksperimental mazmunga ega faol, sust va aralash xususiyatlar bilan farqlanuvchi mashqlarni bajarib borgan 1-TG, 2-TG, 3-TG larida egiluvchanlikning o'sish sur'ati o'rganilgan. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, tik holatdan gavdani oldinga va orqaga egish, “most” holatida umurtqa pog'onasini bukish, chap va o'ng oyoqni oldinga cho'zib “shpagat” ushlab hamda ko'ndalang yo'nalishda “shpagat” ushlab bo'yicha qayd etilgan egiluvchanlik ko'rsatkichlarining umumiy o'rtacha nisbiy o'sish sur'ati 9,97% ni tashkil etgan. Tajriba davomida tavsiya etilgan faol va sust egiluvchanlik mashqlarini aralash tartibda bajarib borgan 1-TGda egiluvchanlikning nisbiy o'sish sur'ati 19,89% ga, faqat faol egiluvchanlik mashqlarini bajargan 2-TGda 16,42% ga, faqat sust egiluvchanlik mashqlarini bajarib kelgan 3-TGda bu ko'rsatkich 15,35% ga teng bo'lgan.

NG va 1-TGga mansub 9-10 yoshli karatechilarda bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni tajriba davomida o‘shish ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Guruh	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	AO‘	NO‘	t	P
			$\bar{X} \pm \sigma$	$\bar{X} \pm \sigma$				
1	Tik holatdan gavnani oldinga egish (sm.)	NG	5,17±0,96	4,63±0,84	0,54	10,44	2,07	<0,05
		TG	5,15±0,98	4,05±0,73	1,10	21,36	4,41	<0,001
2	Tik holatdan gavnani orqaga egish (sm.)	NG	16,41±3,21	14,91±2,85	1,50	9,14	1,71	>0,05
		TG	16,54±3,30	14,22±2,72	2,32	14,03	2,66	<0,01
3	“Most” shaklida egilish (sm.)	NG	49,22±8,66	54,53±9,34	5,31	10,79	2,04	<0,05
		TG	49,41±5,59	61,39±9,91	11,98	24,25	4,41	<0,001
4	Chap oyoq oldinda shpagat (sm.)	NG	17,83±3,31	16,27±2,95	1,56	8,75	1,72	>0,05
		TG	17,63±3,34	14,61±2,65	3,02	17,13	3,47	<0,05
5	O‘ng oyoq oldinda shpagat (sm.)	NG	15,94±3,12	4,21±2,72	1,73	10,85	2,05	<0,05
		TG	15,68±3,13	12,18±2,33	3,50	27,32	4,39	<0,001
6	Ko‘ndalang shpagat (sm.)	NG	13,83±2,43	12,47±2,14	1,36	9,83	2,06	<0,05
		TG	13,94±2,51	11,12±1,91	2,82	20,23	4,38	<0,001
					o‘rta	9,97		
					o‘rta	19,89		

Izoh: AO‘ – absolyut o‘shish; NO‘ – nisbiy o‘shish (foizlarda).

Karate amaliyotida yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan chap oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlarida tos-gilam oralig‘i o‘lchanganda egiluvchanlik 1-TGda tajriba yakuniga kelib 17,63±3,34 sm. dan 14,61±2,65 sm. gacha o‘sgan ($P<0,01$) yoki uning absolyut o‘shish farqi 3,02 sm. ni, nisbiy o‘shish sur‘ati esa 17,13% ni tashkil etgan (5-jadvalga qarang).

O‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlarida egiluvchanlik ushbu guruhda 15,68±3,13 sm. dan 12,18±2,33 sm. gacha o‘sgan ($P<0,001$) yoki uning absolyut o‘shishi 3,50 sm. ga, nisbiy o‘shishi 22,32% ga o‘sgan. Ko‘ndalang yo‘nalishda “shpagat” ushlarida egiluvchanlik 13,94±2,51 sm. dan 11,12±1,91 sm. gacha o‘sgan ($P<0,001$) yoki absolyut o‘shish 2,82 sm. ni, nisbiy o‘shish 20,23% ni tashkil etgan. Biroq, tajriba davomida an‘anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanib borgan NGda bu ko‘rsatkichlarning absolyut o‘shishi muvofiq tartibda 1,56 sm.; 1,73 sm.; 1,36 sm. ga, nisbiy o‘shish sur‘ati esa 8,75%; 10,85%; 9,83% bilan ifodalangan. Ko‘rsatkichlarning o‘shish ishonchliligi: $P>0,05$; $P<0,05$; $P<0,05$ ni tashkil etgan.

Karate olishuvlarida gavnani oldinga va orqaga, o‘ng va chap tomonlarga egilish elementlari oyoq bilan turli yo‘nalishlarda zarba berish koordinatsiyasi muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynashi ma‘lumdir. Bu borada o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, gavnani oldinga egilish burchagi NGda tajriba davomida 157,8±21,44° dan 168,6±22,09° gacha o‘sgan ($P>0,05$) yoki absolyut o‘shish farqi 10,80° ni, nisbiy o‘shish sur‘ati esa 6,84% ni tashkil etgan.

Gavnani orqa tomonga egilish burchagi esa ushbu guruhda tajriba yakuniga kelib 84,3±12,27° dan 90,5±12,79° gacha o‘sgan ($P>0,05$) yoki uning absolyut o‘shish farqi

6,20° ga, nisbiy o'sish sur'ati 7,35% ga teng bo'lgan. 1-TGda esa ushbu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda: gavnani oldinga egishda 154,6±21,59° dan 176,9±23,19° gacha o'sgan (P<0,05) yoki egiluvchanlikning absolyut o'sish farqi 22,30° ni, nisbiy o'sish sur'ati 14,42% ni tashkil etgan. Gavnani orqaga egishda egiluvchanlik 83,1±12,42° dan 95,6±13,49° gacha o'sgan (P<0,01) yoki uning absolyut o'sishi 12,50° ga, nisbiy o'sishi 15,04% ga teng bo'lgan. Nazorat va

1-tajriba guruhlariga mansub 9-10 yoshli karatechilarda qayd etilgan ko'rsatkichlarning qiyosiy taqqoslovidan ko'rinib turibdiki, birinchidan, NGda gavnani oldinga va orqaga egish burchagi o'rtasida tajribadan oldin 73,5° ga teng farq kuzatilgan bo'lsa, tajribadan keyin bu farq 78,1° gacha ortgan. 1-TGda esa ushbu farqdar muvofiq ravishda: 71,5° va 81,3° ni tashkil etgan. Ikkinchidan, gavnani oldinga va orqaga egish burchagi NGda tajriba yakuniga kelib nisbatan kamroq o'sgan bo'lsa, 1-TGda bu ko'rsatkich ko'proq o'sganligi aniqlangan. Shunday bo'lsada, ikki guruhda ham qayd etilgan asimmetrik farq ushbu guruhlariga mansub yosh karatechilarda gavnani orqaga egish burchagini orttirishga etibor qaratadi. Tik holatdan gavnani o'ng va chap tomonlarga egish burchagi ham yuqorida kuzatilgan ko'rsatkichlar dinamikasiga o'xshash yo'nalishda namoyish etilgan. Lekin, bunday egiluvchanlik o'rtasida asimmetrik farqlar ko'rsatkichlari katta bo'lmagan (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Tajriba davomida an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullangan NG va faqat faol mashqlarni qo'llab borgan 2-TGga mansub 9-10 yoshli karatechilarda egiluvchanlikning o'sish sur'ati

T/r	Testlar	Guruh	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	AO'	NO'	t	P
			$\bar{X} \pm \sigma$	$\bar{X} \pm \sigma$				
1	Chap oyoq ordinda – shpagat (sm.)	NG	17,7±2,58	16,46±2,33	1,24	7,01	1,75	>0,05
		2-TG	17,9±2,68	14,9±2,11	3,00	16,76	4,31	<0,001
2	O'ng oyoq oldinda – shpagat (sm.)	NG	15,8±2,14	14,6±1,92	1,20	7,59	2,04	<0,05
		2-TG	16,3±7,28	13,68±1,8	2,62	16,07	4,42	<0,001
3	Ko'ndalang shpagat (sm.)	NG	14,2±1,79	13,2±1,59	1,00	7,04	2,05	<0,05
		2-TG	13,6±1,76	11,57±1,41	2,03	14,93	4,41	<0,001

Izoh: AO' – absolyut o'sish; NO' – nisbiy o'sish (foizlarda).

Chap oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlarida qayd etilgan egiluvchanlik (tos-gilam oralig‘i bo‘yicha “sm” o‘lchov birligida) NGda tajriba yakuniga kelib $17,7\pm 2,58$ sm. dan $16,46\pm 2,33$ sm. gacha o‘sgan ($P>0,05$) yoki uning absolyut o‘shish farqi 1,24 sm. ni, nisbiy o‘shish sur‘ati 7,01% ni tashkil etgan. Tajriba davomida faqat faol egiluvchanlik mashqlarini bajarib borgan 2-TGda esa bu ko‘rsatkich $17,9\pm 2,68$ sm. dan $14,9\pm 2,11$ sm. gacha o‘sganligi aniqlangan ($p<0,001$) yoki uning absolyut o‘shishi 3,0 sm. ga, nisbiy o‘shishi 16,76% ga teng bo‘lgan O‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlarida egiluvchanlik tajribadan avval ikki guruhda ham chap oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlaridagi egiluvchanlikka nisbatan ijobiy bo‘lgan va NGda bu ko‘rsatkich tajriba davomida $15,8\pm 2,14$ sm. dan $14,6\pm 1,92$ sm. gacha o‘sgan ($P<0,05$) yoki uning absolyut o‘shish farqi 1,20 sm. ni, nisbiy o‘shish sur‘ati 7,59% ni tashkil etgan. 2-TGda esa bu ko‘rsatkichlar tajriba davomida $16,3\pm 2,28$ sm. dan $13,68\pm 1,80$ sm. gacha o‘sgan ($P<0,001$) yoki egiluvchanlikning o‘shish farqi 2,62 sm. ga, nisbiy o‘shishi 16,07% ga teng bo‘lgan.

Ko‘ndalang yo‘nalishda “shpagat” ushlarida egiluvchanlik NGda $14,2\pm 1,79$ sm. dan $13,2\pm 1,59$ sm. gacha o‘sgan ($P<0,05$) bo‘lsa, 2-TGda bu ko‘rsatkich $13,6\pm 1,76$ sm. dan $11,5\pm 1,41$ sm. gacha o‘sgan ($P<0,001$) yoki uning absolyut o‘shishi 2,03 sm. ni, nisbiy o‘shish sur‘ati 14,93% ni tashkil etgan.

Tajriba davomida biz tomonimizdan tavsiya etilgan faqat sust egiluvchanlik mashqlarini bajarib borgan 3-TGda tik holatdan gavdani oldinga-orqaga “most” holatida tos-son va umurtqani egish, chap va o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib hamda ko‘ndalang yo‘nalishda “shpagat” ushlarida qayd etilgan egiluvchanlik ko‘rsatkichlari shu tajriba jarayonida faqat faol egiluvchanlik mashqlarini bajarib kelgan 2-TGda kuzatilgan egiluvchanlik ko‘rsatkichlaridan deyarli keskin farq qilmagan yoki qisman jadalroq sur‘atlar bilan o‘sgan. Lekin, shuni alohida ta’kidlash joizki, 3-TGda qo‘llanilgan faqat sust egiluvchanlik mashqlari bilan shug‘ullanishga ustuvorlik berish shikastlanish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shunday ekan, bunday mashqlarni faol egiluvchanlik mashqlari bilan “aralashtirib”, ehtiyotkorlik doirasida qo‘llab borish maqsadga muvofiqdir.

Karate amaliyotida yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan turli holatlarda (o‘ng va chap oyoqni oldinga yozilgan, ko‘ndalang shaklda) “shpagatga tushish” orqali egiluvchanlikni erta yoshlikdan boshlab muvofiq mashqlar yordamida rivojlantirib borish afzalligi ma’lumdir. Biroq, ana shunday egiluvchanlik turlarini rivojlantirish davomida ularni turli metodlar va turli o‘lchov birliklari asosida baholab borish o‘ta muhimligi qator mutaxassislar tavsiyalaridan ma’lumdir. Biz ana shu tavsiyalarga amal qilgan holda tajriba davomida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanib borgan NGda va ushbu jarayonda faol hamda sust egiluvchanlik mashqlarini muntazam bajarib borgan 1-TGda turli holatlarda “shpagatga tushish” bilan bog‘liq egiluvchanlikni “o‘lchov lentasi”, goniometr asbobi va o‘z tomonimizdan ishlab chiqilgan “EO‘U-M” elektron o‘lchov uskunasi yordamida baholadik. Bunday tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, chap oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlarida tos-gilam oralig‘i NGda tajribadan avval $17,83\pm 3,31$ sm. ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib bu ko‘rsatkich $16,27\pm 2,95$ sm. gacha o‘sgan ($P>0,05$) yoki uning absolyut o‘shish farqi 1,56 sm. ga, nisbiy o‘shish sur‘ati 8,75% ga teng bo‘lgan (7-jadvalga qarang).

NG va 1-TGlariga mansub 9-10 yoshli karatechilarda tos-son bo'g'implari egiluvchanligini turli metodlar yordamida aniqlash natijalarining tajriba davomida o'sish sur'ati


T/r	Testlar bloki	Guruh	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	AO'	NO'	t	P
			$\bar{X} \pm \sigma$	$\bar{X} \pm \sigma$				
“SH-E”ni tos-gilam oralig'i bo'yicha aniqlash								
1	Chap oyoq oldinda – “shpagat” (sm.)	NG	17,83±3,31	16,27±2,95	1,56	8,75	1,72	>0,05
		1-TG	17,63±3,34	14,61±2,65	3,02	17,13	3,47	<0,01
2	O'ng oyoq oldinda – “shpagat” (sm.)	NG	15,94±3,02	14,21±2,72	1,73	10,85	2,09	<0,05
		1-TG	15,68±3,13	12,18±2,33	1,50	22,32	4,39	<0,001
3	Ko'ndalang “shpagat” (sm.)	NG	13,83±2,43	12,47±2,14	1,16	9,83	2,06	<0,05
		1-TG	13,94±2,51	11,12±1,91	2,82	20,23	4,38	<0,001
“SH-E”ni goniometrda aniqlash								
4	Chap oyoq oldinda – “shpagat” (gradus)	NG	153,5±22,38	164,8±23,24	11,30	7,36	1,72	>0,05
		1-TG	152,7±22,89	176,7±24,97	24,00	15,72	3,47	<0,01
5	O'ng oyoq oldinda – “shpagat” (gradus)	NG	156,5±19,71	168,4±20,44	11,90	7,60	2,05	<0,05
		1-TG	155,3±20,17	182,2±22,09	26,90	17,32	4,41	<0,001
6	Ko'ndalang “shpagat” (gradus)	NG	160,7±21,79	173,9±22,83	13,20	8,21	2,07	<0,05
		1-TG	161,8±22,64	192,3±25,29	30,50	18,85	4,40	<0,001
“SH-E”ni elektron o'lchov asbobida aniqlash								
7	Chap oyoq oldinda – “shpagat” (gradus)	NG	147,6±20,03	157,7±20,69	10,10	6,84	1,72	>0,05
		1-TG	148,8±20,77	170,5±22,41	21,70	14,58	3,48	<0,01
8	O'ng oyoq oldinda – “shpagat” (gradus)	NG	152,7±17,69	163,28±18,13	10,58	6,93	2,07	<0,05
		1-TG	151,5±18,17	175,4±19,54	23,90	15,78	4,39	<0,001
9	Ko'ndalang “shpagat” (gradus)	NG	159,4±20,4	171,41±20,78	12,01	7,53	2,04	<0,05
		1-TG	158,6±20,59	184,83±22,43	26,23	16,54	4,22	<0,001

Izoh: “SH-E” – shpagat egiluvchanlik; AO' – absolyut o'sish (sm. yoki gradus); NO' – nisbiy o'sish (% da).

TGda esa bu ko'rsatkich 17,63±3,34 sm. dan 14,61±2,65 sm. gacha o'sgan ($p>0,05$) yoki uning absolyut o'sishi 3,02 sm. ni, nisbiy o'sish sur'ati esa 17,13% ni tashkil etgan. O'ng oyoqni oldinga cho'zib “shpagat” ushlashda egiluvchanlik dastlab ikki guruhda ham bir oz yaxshiroq qayd etilgan va NGda tajribadan avval 15,94±3,02 sm. dan 14,21±2,72 sm. gacha o'sgan ($P<0,05$) yoki uning absolyut o'sish farqi 1,73 sm. ga, nisbiy o'sish sur'ati 10,85% ga teng bo'lgan. TGda bunday egiluvchanlik tajriba davomida 15,68±3,13 sm. dan 12,18±2,33 sm. gacha o'sgan ($P<0,001$) yoki uning absolyut o'sishi 3,50 sm. bilan, nisbiy o'sish sur'ati 22,32% bilan qayd etilgani ma'lum bo'ldi (4-rasmga qarang).

Ko'ndalang yo'nalishda “shpagat” ushlashda egiluvchanlik NGda tajriba davomida 13,83±2,43 sm. dan 12,47±2,14 sm. gacha o'sgan ($P<0,05$) yoki uning absolyut o'sish farqi 1,36 sm. ni, nisbiy o'sish sur'ati 9,83% ni tashkil etgan.

Egiluvchanlikni goniometr asbobida “gradus” o‘lchov birligi bilan baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, chap oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlashda shu egiluvchanlik burchagi (amplitudasi) NGda $153,5 \pm 22,38^\circ$ dan $164,8 \pm 23,24^\circ$ gacha o‘sgan ($P > 0,05$) yoki uning absolyut o‘shish farqi $11,30^\circ$ ga, nisbiy o‘shish sur‘ati $7,36\%$ ga teng bo‘lgan.




6-rasm. NG va 1-Tglarida EO‘U-M bo‘yicha chap va o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib, “shpagat” ushlashda egiluvchanlikning tajriba yakuniga kelib nisbiy o‘shish sur‘ati

Izoh: 1 – chap oyoqni oldinga uzatib “shpagat” ushlash; **2** – o‘ng oyoqni oldinga uzatib “shpagat” ushlash.

TGda esa bu ko‘rsatkich $152,7 \pm 22,89^\circ$ dan $176,7 \pm 24,97^\circ$ gacha o‘sganligi aniqlangan ($P < 0,01$) yoki uning absolyut o‘shishi $24,0^\circ$ ni, nisbiy o‘shishi $15,72\%$ ni tashkil etgan. O‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlashda egiluvchanlik NGda $156,5 \pm 19,71^\circ$ dan $168,4 \pm 20,44^\circ$ gacha o‘sgan ($P < 0,05$) yoki uning absolyut o‘shish farqi $11,90^\circ$ ga, nisbiy o‘shish sur‘ati $7,60\%$ ga teng bo‘lgan.

TGda esa bu ko‘rsatkich $155,3 \pm 2,17^\circ$ dan $182,2 \pm 22,09^\circ$ gacha o‘sgan ($P < 0,001$) yoki uning absolyut o‘shish qiymati $26,90^\circ$ ni, nisbiy o‘shish sur‘ati $17,32\%$ ni tashkil etgan (5-rasmga qarang).



7-rasm. NG va 1-TGlarida goniometr bo‘yicha chap va o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlashda egiluvchanlikning tajriba yakuniga kelib nisbiy o‘shish sur‘ati

Izoh: 1 – chap oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlash; **2** – o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlash.

Ko‘ndalang shaklda “shpagat” ushlashda ham egiluvchanlik 1-TGda jadal sur‘atlar bilan o‘sganligi aniqlangan. “Shpagat” ushlash bilan bog‘liq egiluvchanlikni

“EO‘U-M” elektron o‘lchov uskunasi yordamida baholashda qayd etilgan barcha ko‘rsatkichlar goniometrda baholangan ko‘rsatkichlarga nisbatan yaqqol past darajada bo‘lgan. Masalan, 1, 2, 3-nci testlar bo‘yicha egiluvchanlik 1-TGda tajribadan oldin muvofiq ravishda: $148,8 \pm 20,77^\circ$, $151,5 \pm 18,17^\circ$, $158,6 \pm 20,59^\circ$ ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib ular $170,5 \pm 22,41^\circ$, $175,4 \pm 19,54^\circ$, $184,83 \pm 22,43^\circ$ ga teng bo‘lgan. NGda bu ko‘rsatkichlar tajriba boshida $147,6 \pm 20,03^\circ$, $152,7 \pm 17,69^\circ$, $159,4 \pm 20,04^\circ$ ni, tajriba yakunida $157,7 \pm 20,69^\circ$, $163,28 \pm 18,13^\circ$, $171,41 \pm 20,78^\circ$ ni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, birinchidan, elektron uskuna yordamida o‘lchangan egiluvchanlik ko‘rsatkichlari qo‘llanilgan barcha testlar bo‘yicha ham goniometrda qayd etilgan ko‘rsatkichlardan past bo‘lgan yoki boshqacha qilib aytganda ikki guruhga mansub karatechilarda ham egiluvchanlik nisbatan yaxshi rivojlanmaganini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, ko‘ndalang shaklda “shpagat” ushlab bo‘yicha qayd etilgan egiluvchanlik chap va o‘ng oyoqni oldinga cho‘zib “shpagat” ushlabda namoyish etilgan egiluvchanlik ko‘rsatkichlariga nisbatan yaxshiroq rivojlanganligi kuzatilgan.

XULOSALAR

Mavzu doirasida chop etilgan adabiyotlarni o‘rganish, ularda keltirilgan turli tadqiqot natijalari, ilmiy-uslubiy ma‘lumotlar va karate amaliyotida to‘plangan mahalliy hamda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahliliga hamda biz tomonimizdan qo‘llanilgan metodikalar samaradorligini aniqlash asosan quyidagi xulosalarni etirof etish mumkin:

1. Yosh karatechilar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlarida ham, sport mahoratini takomillashtirish bosqichlarida ham bo‘g‘imlararo egiluvchanlikni rivojlantirishga yetarli etibor berilmas ekan. Masalan, 9-10 yoshli karatechilar bilan olib borilgan 24 ta mashg‘ulotni kuzatish va qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tos-son, umurtqa bo‘g‘imlarini egish-yozishga qaratilgan mashqlarning umumiy o‘rtacha hajmi 50,5 martani yoki har bir mashg‘ulotda o‘rtacha 7,2 martani tashkil etgan. Ularga sarflangan vaqt esa muvofiq ravishda 16,7 va 2,4 daq. ga teng bo‘lgan. Yosh karatechilar mashg‘ulotlarida esa bu ko‘rsatkichlar 45,8-6,5 martani va 14,9-2,1 daq. ni tashkil etgan. Ushbu holatni chuqurroq o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan aniqlandiki, egiluvchanlikning fiziologik mohiyati va amaliy ahamiyati, mashqlar mushaklarning qanday xususiyatlarini shakllantirishi, faol va sust egiluvchanlik mashqlari qo‘llash bo‘g‘imlar egiluvchanligini aniqlash va baholash metodikalari deyarli mavjud emasligi tahlillarimiz davomida aniqlandi.

2. Yosh karatechilarni bo‘g‘imlararo egiluvchanligini aniqlash uchun bo‘g‘imlarni egish, yozish ta‘sirini rezistorlardan iborat dachiklar yordamida raqamli signalga aylantirib qabul qiluvchi va uzatuvchi mikroprotessor yordamida natijalarni katta tezlik va aniqlikda komputer monitorida qayd etish, xotirasiga kiritish, asosiy bo‘g‘imlarning egish-yozish amplitudasini aniqlash va baholash metodikasi karate mashg‘ulotlarida qo‘llanildi. Natijada ushbu yosh guruhiga mansub karatechilarda bo‘g‘imlararo egiluvchanlik 19,89% gacha o‘shishiga erishildi.

3. 9-10 yoshli karatechilarni asosiy bo‘g‘imlararo egiluvchanligini rivojlantirish uchun tana qismlarini bukish, yozish harakatlari bilan amalga oshiriladigan mashqlarni dinamik tartibda takrorlash, faol yondashuv asosida ertalab to‘liq holda har mashg‘ulot boshida va yakunida qisqartirilgan tartibda muntazam amalga oshirish orqali yosh karatechilar gavdani oldinga egish 21,36% gacha yaxshilanishga erishildi.

4. 9-10 yoshli karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni rivojlanish sur'atini oshirish uchun ularni erta yoshlikdan qo'llashda faol mashqlarga urg'u berish hamda karateda yetakchi bo'lgan turli holatlarda "shpagat" ushlarida qayd etiladigan egiluvchanlikni obyektiv baholashga moslashtirilgan EO'U-M (DC-87/23-10) elektron o'lchov uskunasi bo'g'imlar egiluvchanligini aniqlashga qaratilgan mexanizmdan karate mashg'ulotlari jarayonida foydalanildi. Yuqoridagi metodikani muntazam qo'llash orqali bo'g'imlararo egiluvchanlikning umumiy o'sish sur'ati yosh karatechilarda 9,97% gacha oshdi.

5. 9-10 yoshli karatechilarda "faol-sust" mashqlar yordamida tarbiyalash uchun bo'g'imlararo egiluvchanlikni simmetrik nisbatda shakllantirib, harakat amplitudasini keng diapazonda zarba berishni shiddatli qo'llab, tos-son tizza-bo'g'imlar egiluvchanlik barqarorligi va zahirasini aniqlashga qaratilgan zamonaviy innovatsion uskunalaridan foydalanildi. Natijada chap oyoqni oldinga cho'zib, "shpagat" ushlarida bo'yicha 11,98% gacha, o'ng oyoqni oldinga cho'zib "shpagat" ushlarida 15,93% gacha, yaxshilanishga erishildi.

6. 9-10 karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni guruhlar kesimida o'rganishga etibor qaratildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, turli holatlarda bo'g'imlarni egish oralig'i, birinchidan, 9-10 yoshli karatechilarda qayd etilgan muvofiq natijalarga nisbatan ancha katta bo'lganidan darak beradi. Ikkinchidan, karatechilarda o'quv-mashg'ulot yili boshida qayd etilgan egiluvchanlik natijalari uning yakuniga kelib ham sezilarli o'smagan yoki uning o'sish oralig'i testlarning murakkabligiga qarab 0,3-2,3 sm. ni tashkil etgan. Ammo, egiluvchanlikni, masalan, gavdani oldinga egish (bosh-tizza oralig'i 9-10 yoshli karatechilarda $3,87 \pm 1,73$ - $2,51 \pm 0,49$ sm. bilan ifodalangan bo'lsa, ko'ndalang "shpagat" ushlarida yosh karatechilarda $14,9 \pm 1,57$ - $13,5 \pm 1,61$ sm. bilan qayd etilgan.

7. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan zamonaviy innovatsion uskunada karatechilarni egilish burchaklari aniqlandi hamda baolab borildi. Unga ko'ra karate bilan shug'ullanishni boshlagan 9-10 yoshli karatechilarda o'tirib, gavdani oldinga egishda bosh-tizza oralig'i 3,1-14,5 sm. ni, o'rtacha $6,87 \pm 1,73$ sm. ni tashkil etgan. Gavdani orqaga egishda 3,5-27,5 sm. va $16,5 \pm 2,18$ sm. ga teng bo'lgan. "Most" holatini qabul qilishda bel-gilam oralig'ining min-max ko'rsatkichlari 40,5-66,0 sm. bilan ifodalangan bo'lsa, o'rtacha $53,6 \pm 3,07$ sm. ga teng bo'lgan. Chap oyoqni oldinga cho'zib "shpagat" ushlarida tos-gilam oralig'i o'rtacha $19,7 \pm 2,23$ sm. bilan qayd etilgan bo'lsa, o'ng oyoqni oldinga cho'zib "shpagat" ushlarida egiluvchanlik tos-gilam oralig'i bo'yicha $16,2 \pm 2,12$ sm. ni tashkil etgan.

8. Joriy tadqiqotlardan aniqlandiki, tik holatdan gavdani oldinga va orqaga egish oralig'i o'rtasida 9-10 yoshli karatechilarda 10,96 sm. ga teng asimmetrik farq qayd etilgan. Chap va o'ng oyoqni oldinga cho'zib "shpagat" ushlarida tos-gilam oralig'i o'rtasida bunday asimmetrik farq yosh karatechilarda 3,1 sm. ni tashkil etgan. Kuzatilgan asimmetrik farqlar o'quv-mashg'ulot yili yakuniga kelib yanada ortish tendensiyasi bilan ifodalangan va yosh karatechilarda muvofiq ravishda 11,13 sm. va 2,3 sm. gacha ortgan. Qayd etilgan bunday tendensiya zarbalar diapazoni, hatto ularning kuchiga ham ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan holi emasligi aniqlandi.

AMALIY TAVSIYALAR

O'tkazilgan joriy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar natijalarining qiyosiy tahliliga asosan yosh karatechilarda bo'g'imlararo egiluvchanlikni jadal

rivojlantiruvchi aralash tartibda qo'llaniladigan quyidagi faol va sust mashqlarni amaliyotga tatbiq qilish tavsiya etiladi:

1. Faol mashqlar: Jipslashtirilgan oyoqlarni cho'zib o'tirgan holatda gavda-boshni tizzalar tomon egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Oyoqlarni bir-biridan maksimal uzoqlashtirib o'tirgan holatda gavda-boshni oldinga egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; “Chalqancha” yotgan holatdan jipslashtirilgan oyoqlarni ko'tarib peshona tomon egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Mashq oyoqlarni bir-biridan maksimal uzoqlashtirilgan holatida bajariladi; Gimnastik “ko'prik” mashqini bajarish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Gimnastik “most” mashqini boshga tayangan holatda bajarish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta bajarish tavsiya etiladi.

2. Sust mashqlar: Jipslashtirilgan oyoqlarni cho'zib o'tirgan holatda gavda-boshni tizzalar tomon egish hamda Gimnastik “most” mashqlarini sust tartibda, ya'ni ular 5 kg. li to'ldirma to'pni yuklab shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; bajariladi. Jipslashtirilgan oyoqlarni cho'zib o'tirgan holatda gavda-boshni tizzalar tomon egish hamda Gimnastik “most mashqlarni bajarishda: 1-variant- chuqur nafas olib, nafas saqlanadi; 2-variant – chuqur nafas chiqarib, nafas saqlanadi. Tos-son-tizza bo'g'imlar egiluvchanligini I mashqlar majmuasi shartlariga mos tartibda shakllantirish mashqlari. Tizzalarni bukib, boldirlarga o'tirgan holatdan gavda-boshni tatami yuzasi tomon egilish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta. Chap tizzani bukib, boldirga o'tirgan holatdan 2.1. mashqni bajarish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta. O'ng tizzani bukib, boldirga o'tirgan holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta. “Chordana qurib” o'tirgan holatdan gavda-boshni tatami yuzasi tomon egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta bajarish tavsiya etiladi.

3. Tos-son bo'g'imlari egiluvchanligini mashqlar majmuasi shartlariga mos tartibda shakllantirish mashqlari: O'ng oyoqni oldinga cho'zib “shpagat” mashqini bajarish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 seriya; Chap oyoqni oldinga cho'zib, “shpagat” mashqini bajarish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Ko'ndalang shaklda oyoqlarni yon tomonlarga cho'zib “shpagat” mashqini bajarish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; O'ng oyoqni oldinga cho'zib “shpagat”, Chap oyoqni oldinga cho'zib, “shpagat” mashqlarni bajarishda gavda-boshni oldinga cho'zilgan oyoq tizzasi tomon egilish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; O'ng oyoqni oldinga cho'zib “shpagat”, Chap oyoqni oldinga cho'zib, “shpagat” mashqlarni bajarishda gavda-boshni orqaga cho'zilgan oyoq tomon egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Ko'ndalang shaklda oyoqlarni yon tomonlarga cho'zib “shpagat” mashqni bajarishda gavda-boshni chap oyoq tomonga egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Ko'ndalang shaklda oyoqlarni yon tomonlarga cho'zib “shpagat” mashqni bajarishda gavda-boshni o'ng oyoq tomonga egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta; Ko'ndalang shaklda oyoqlarni yon tomonlarga cho'zib “shpagat” mashqni bajarishda gavda-boshni oldinga tatami yuzasi tomon egish va shu holatni saqlash – 30 s. dan 3 marta bajarish tavsiya etiladi.

4. Yosh karatechilarni bo'g'imlar egiluvchanligini tarbiyalashda 1, 2, 3 ilovalarda qayd etilgan mashqlar 4, 5 oy davomida ertalab to'liq holda, har bir mashg'ulot boshida va yakunida qisqartirilgan tartibda muntazam qo'llanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 33/01.02.2022.Ped.146.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

АБДУРАХМАНОВ МУРОДЖОН САЙИТКУЛОВИЧ

**МЕТОДИКА ВОСПИТАНИЯ ГИБКОСТИ СУСТАВОВ У 9-10 ЛЕТНИХ
КАРАТИСТОВ И ПРЕИМУЩЕСТВА ЕЁ ОЦЕНИВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ
ЭЛЕКТРОННОГО ИЗМЕРИТЕЛЬНОГО ОБОРУДОВАНИЯ**

**13.00.04 - Теория и методика физического воспитания, спортивной подготовки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Чирчик–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером №B2023.3.PHD/Ped5235.

Докторская диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте имени Ажинияза.

Автореферат диссертации на трёх (узбекском, русском, английском (резюме)) языках размещен на веб-сайте Научного совета www.uzdjtsu.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научные руководитель: **Кайпов Ниетбай Айтбаевич**
кандидат педагогических наук, доцент

Рецензенты: **Кочкаров Атабек Ахматваевич**
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Пулатов Лазиз Азамат угли
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека.**

Защита диссертации состоится «___» «_____» 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc. 33/01.02.2022.Ped.146.01 при Институте научных исследований физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, корпус «А» 1-этаж, 114-аудитория.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирован под номером _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года
(реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2025 года)

Ф.А.Керимов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор

Х.Х.Курбонов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.п.п.н (PhD)

О.Ж.Дадабаев
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире каратэ, считается одним из восточных единоборств, благодаря своей философской сущности, уникальным и чудесным движениям, издавна известно как боевое искусство. На сегодняшний день процесс соревнований в виде спортивного статуса становится все более популярным с использованием ударов руками и ногами. Наряду с этим, уделяется внимание подготовке всесторонне развитых каратистов и систематическому планированию их тренировочного процесса. Известно, что в единоборствах, в том числе в каратэ, "зона" удара по сопернику определяется правилами соревнований, а полное и точное попадание в эту "зону" руками и ногами отражает зависимость межсуставной гибкости от амплитуды их сгибания-разгибания. Однако, если гибкость суставов развита слабо, эластичность мышц недостаточна, и такое состояние также влияет на координацию удара, его амплитуду и точность. Вопросы развития межсуставной гибкости и ее объективной оценки, имеющие ведущее значение в практике каратэ, изучены в узком кругу, а определение и развитие гибкости молодых каратистов с помощью электронного оборудования наряду с комплексным контролем видов подготовки является одной из актуальных проблем.

На сегодняшний день в мире разработаны теоретические, методические и научные основы практики подготовки каратистов различного возраста и спортивной квалификации, накоплен передовой международный опыт. В большинстве видов спорта созданы методы, средства и критерии оценки обучения технико-тактическим приемам, их совершенствования, развития физических качеств и психофункциональных возможностей. На основе исследований раскрыто проведение тренировок в многолетних циклах подготовки, оптимизация объема и интенсивности нагрузок. Однако в практике каратэ, являющегося одним из видов восточных единоборств, подобные проблемы не нашли своего полного решения. В данном виде спорта возникает необходимость разработки научно обоснованных методик развития гибкости суставов у юных каратистов, направленных на улучшение амплитуды, координации и точности ударов, а также межсуставной гибкости.

В нашей стране реализуются системные меры по ускорению физического развития подрастающего поколения, широкой популяризации детского спорта, направлению детей в специализированные спортивные дисциплины. Определены такие задачи, как "Развитие всех аспектов подготовки юных каратистов для достижения успеха в спортивной деятельности, особенно гибкости суставов, определяющих амплитуду движений"¹. Гибкость суставов является не только фактором, обеспечивающим точность и безопасность технических действий, но и одним из необходимых условий достижения высоких спортивных результатов. Особенно для каратистов 9-10 лет активное формирование мышечной и скелетной системы, эластичность суставов и изменчивость двигательного аппарата в этом возрасте требуют соответствующего подхода к их тренировочному процессу. Однако, пока существует конкуренция, будут расти и спортивные результаты.

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-356 от 3 ноября 2023 года «О мерах по дальнейшему развитию спорта каратэ (WKF)». www.lex.uz

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6099 "О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта" от 30 октября 2020 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-356 "О мерах по дальнейшему развитию вида спорта каратэ (WKF) " от 3 ноября 2023 года, №ПП-4877 "О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в сфере физической культуры и спорта" от 3 ноября 2020 года, №ПП-414 "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров и исследований в сфере физической культуры и спорта" от 3 ноября 2022 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование проведено в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации при социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

